

**WAYS AND PRINCIPLES OF FORMING SPEAKING CULTURE OF STUDENTS IN  
PRIMARY EDUCATION SYSTEM**

Anarbekova Gulzhan Azizbekovna  
Chirchik State Pedagogical University

**ABSTRACT**

This article deals with the psycholinguistic and educational foundations of speech development, the means of implementing the speech development program in educational institutions, the means and methods of speech development of primary school students.

**Keyword:** Education, upbringing, cognitive activity, science, personality, language, thinking, speech, logic, creative thinking, method, oral method, conversation.

**BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA TALABALARING NUTQIY MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH YO'llARI VA TAMOYILLARI**

Anarbekova Guljan Azizbekovna  
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada nutq rivojlantirishning psixolingvistik va ta'limiyl asoslari, ta'lif muassasalarida nutqni rivojlantirish dasturini amalga oshirish vositalari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish vositalari va usullari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lif, tarbiya, bilish faoliyati, fan, shaxs, til, tafakkur, nutq, mantiqiylik, ijodiy fikrlash, usul, og'zaki usul, suhbat.

**АННОТАЦИЯ**

В этой статье говорится о психолингвистических и образовательных основах развития речи, о средствах выполнения программы развития речи в образовательных учреждениях, а также о средствах и методике развития речи учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** Обучение, воспитание, познавательная деятельность, наука, личность, язык, мышление, речь, логика, творческое мышление, метод, устный метод, беседа.

**KIRISH**

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgan, huquqiy demokratik jamiyat qurishga intilayotgan har bir insonning ozod va erkin, farovon yashashini ta'minlovchi jamiyat barpo etilmoqda. Yoshlarning ilm - ma'rifatli bo'lishiga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish ta'lif tizimining barcha bosqichida ona tilining asosiy o'quv predmet ekanligini, fanlarni egallash uchun avvalo, ona tilida to'g'ri, ifodali, tartibli va ijodiy fikrlash zarurligini aniq namoyon etmoqda.

Boshlang'ich ta'lifning asosiy vazifasi bolalarni maktab va maktabdan tashqari ta'lif olishga tayyorlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash ko'nikmasini egallashi,

tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, nutqning o'rni, ahamiyati kattadir. Chunki, til kishilarining o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi.

Til birliklari nutqni hosil qiladi, ya'ni har bir inson o'z fikrini boshqalarga til orqali, til birliklari orqali bayon qiladi, boshqalarning fikrini anglashga harakat qiladi, tushunadi. Ya'ni, nutq tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar haqidagi fikr mulohazalarni boshqalarga yetkazishdir. Shuning uchun til va nutq inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish metodikasi fanining o'qitilishi, nutq o'stirish usullarini bilish, har bir yosh guruhda bolalar nutqini o'stirish vazifalarini to'g'ri hal etish imkonini beradi, bolalarni hayotga tayyorlash vazifasining bajarilishini ta'minlaydi. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida 1920- yillargacha pedagogika fani tarkibida taraqqiy etdi, so'ng mustaqil fan sifatida shakllandи.

Asosiy qism. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida bolalar nutqini o'stirishning pedagogik qonuniyatları, pedagogik faoliyatning shakllanishi va talablarini o'rganadi, nutq o'stirishning eng samarali omillari, vositalarini, usul va usullarini hozirgi zamon pedagogikasining yutuqlari, ilmiy pedagogik talablari asosida ishlab chiqadi, ta'limga, fanga tavsiya etadi. Nutq o'stirish metodikasi ana shu pedagogik vazifadan kelib chiqqan holda pedagogikaning quyidagi asosiy savollariga javob beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari lingvistlarni shunisi bilan jalg qiladiki, bunda o'rganilayotgan predmet (bola nutqi) lingvistik jihatdan ko'p qirrali va qiziqarlidir. Lingvist olimlar fikriga ko'ra, bola nutqiga oid har bir fakt kamida ikki yo'naliш bo'yicha ko'rib chiqilishi mumkin va shart:

- 1) "Kattalar tili" tomon borishdagi vaqtincha nutq sifatida (agarda so'z innovatsiya haqida borayotgan bo'lsa);
- 2) Bolaning avtonom til tizimi elementi sifatida, uning ichida bola muayyan funksional vazifaga ega boladi.

Bolalar nutqini rivojlantirishning metodik masalalarini ishonchli tarzda psixolingvistik asoslash zamonaviy pedagogik tadqiqotlarga xos jihatlar hisoblanadi. Rus pedagogika fanining eng yaxshi an'analari ruhida bajarilgan ushbu tadqiqotlar katta faktik materiallarga ega bo'ladi, bola nutqining obyektiv qonuniyatlarini aniqlaydi. F.A.Soxin va O.S.Ushakovlarning tasnididan foydalangan holda bolalar nutqini psixologik-pedagogik tadqiq qilishni uchta yo'naliшhga ajratish mumkin:

- tuzilmaviy (til tizimining turli tuzilmaviy darajalarini: fonetik, leksik, grammatik darajalarini shakllantirish),
- funksional (kommunikativ faoliyatda tilni egallash ko'nikmalarini shakllantirish);
- kognitiv (til va nutq hodisalarini oddiy anglashni shakllantirish).

Nutqqa nisbatan ilmiy tadqiqot obyekti sifatidagi umumiy yondashuvlarni tahlil qilish psixik rivojlanishning barcha jihatlarini tushunish uchun o'rganilishi favqulodda muhim bo'lgan

ushbu hodisaning o‘ta murakkabligi va ko‘p qirraliligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. “Nutq o‘ziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o‘rinni egallaydi...”.

Tilni turli nuqtai-nazardan tavsiflovchi mazkur yondashuvlarni taqqoslash orqali nutqning ilmiy o‘rganish ob‘yekti sifatidagi umumiylarini ajratish mumkin. Nutq - bu tilni ishga solish jarayonidir (I.A.Zimnyaya, V.M.Solnsev). Subyektning nutqiy faoliyati ichki vosita va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o‘z ichiga oladi.

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini o‘rganuvchi psixofiziologik tadqiqotlar fanning qiziqarli va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Birinchi bo‘lib ushbu muammoni N.I.Jitkin ko‘tarib chiqqan. Uning qayd etishicha, “nutq mexanizmi - bu jonli, moslashuvchan va doimo takomillashib boradigan mexanizmdir”.

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini tahlil qilishda olimlar bir tomonidan, N.I.Jitkin konsepsiyasiga, ikkinchi tomonidan, mexanizmlarni nutqiy faoliyat bosqichlari bilan taqqoslagan holda insonning nutqiy xulq-atvoriga nisbatan faoliyat nuqtai-nazaridan yondashishga oid asosiy qoidalarga asoslanadilar.

So‘nggi o‘n yillikda lingvistlar, psixologlar tomonidan “til qobiliyati” muammosi qizg‘in muhokama qilinmoqda, bunda til qobiliyati deganda “til tizimini o‘zlashtirishda ko‘nikma va mahoratlarni tezlik bilan shakllantirishga yordam beradigan individual xususiyatlar” tushuniladi (F.De Sossyur, L.V.Sherba, J.Grin, M.K.Kabardov, V.I.Markova va boshq.).

Nutqni psixologik tadqiq qilishning istiqbolli vazifasi sifatida inson nutqiy qobiliyatining konseptual modelini qurish psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi (T.N.Ushakova). Modelda quyidagi hodisalar o‘z izohini topishi lozim: nutq yordamida mulohaza qilingan fikrni uzatish (ya’ni, nutqiy semantika muammosi), bunda grammatik qoidalardan foydalanish (ya’ni, tilni ishga tushirish), akustik kanalni ishga tushirish, muloqot va ijtimoiy aloqa sifatida nutqni qo’llash, ushbu barcha operatsiyalarni miya harakatlari bilan muvofiqlashtirgan holda bayon qilish imkoniyatining mavjudligi.

Nutqni tushunish borasida yuqorida bayon qilingan fikrlar va tavsiflardan kelib chiqqan holda “Nutqni rivojlantirish” tushunchasiga murojaat qilamiz. “Nutqni rivojlantirish - bu oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga o‘tishdan iborat bo‘lgan o‘zgarish; miqdoriy o‘zgarishlarning asta-sekin yig‘ilishi sifat o‘zgarishlarining yuz berishiga olib keladigan jarayondir”.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish va ularning nutqini rivojlantirishga doir ta’lim-tarbiya ishlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu ishning maqsadi quyidagilardan iborat: - bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli - og‘zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofiq holda egallahshni, to‘liq ko‘rinishda esa tushunish va faol nutqqa kirishishni o‘rgatish. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda, bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash;
- Lug‘atni boyitish, mustahkamash va faollashtirish;
- Nutqning grammatik to‘g‘riligini takomillashtirish;
- Og‘zaki (dialogik) nutqni o‘rgatish;
- Ravon nutqni rivojlantirish;
- Badiiy so‘zga qiziqishni tarbiyalash;
- Savod o‘rganishga tayyorlash.

O'quvchilarning nutqini shakllantirish uchun o'qituvchi dars jaroyonida ta'limi o'yinlardan foydalanishi kerak. Masalan, "O'zaro bog'liqlik" ta'limi o'yini ham yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilarga rasmi li kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi.

Birinchi o'quvchi: Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi. Keyin, ikkinchi o'quvchi ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak.

Ikkinchi o'quvchi: Bu quyosh. Quyosh chiqsa, havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa olma va boshqa mevalar pishadi. Keyin, uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikn topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Nutq madaniyati boshlang'ich ta'lism o'quvchilarning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi, ma'rifatga chorlaydi ijtimoiy ongni o'zgartiradi. Yosh o'quvchilarda mustaqil fikrash jamiyat hayotida faol ishtirok etish, uni rivojlantirishga xizmat qilish munosabatlarini shakllantiradi. Nutq madaniyati bolalarda milliy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash bilan birga yangi zamon talablarga mos ravishda takomillashib boradi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quvchilarning nutqini ravon bo'lishi uchun pedagog-o'qituvchilarimiz o'z kasbiga sidqidildan yondoshmog'i, yangi ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanib darslarni tashkil etmog'i lozim. Zero, kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarning nutqiy madaniyatini shakllantirish, ularning erkin va mustaqil fikrashdigan qilib tarbiyalash, kuchli bilim egasi qilib ta'lim berish o'qituvchilarga ulkan vazifa yuklaydi. O'qituvchi o'z nutqining o'quvchilarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsga e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi sust.

O'qituvchining mahorati shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'limg-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak. Bu murakkab vazifani sharaflı kasb egalari mas'uliyat bilan ado etishlariga jamiyat ishonch bildiradi.

## REFERENCES

1. Анарбекова, Г. А. (2021). Ыбырайдың ағартушылық көзқарастары. Олтинсарин ижоди ва илмий меросини ўрганиш масалалари, 1(1), 110-111.
2. Anarbekova, G. A. (2021). Og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari. Ekonomika i sotsium, 5(84), 55-75.
3. Anarbekova, G. A., Duysabayeva, D. U. (2021). Problems of formation of language culture in school students. O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari, 1(1), 250-253.